



FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 17-sentabr

105-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Budget kodeksi”ning 28, 73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024-yil 11-martdagi 20/1-758-sonli topshiriq xati, Farg‘ona viloyat hokimining 2024-yil 20-apreldagi 9-228-sonli xati hamda tuman hokimining 2024-yil 9-sentyabrdagi 01-14/27-sonli xatlarini inobatga olib, tuman hokimi o‘rinbosari X.Umrzaqovni Xitoy davlatiga amaliy tashrifi munosabati bilan, X.Umrzaqovning yo‘l chiptalari, mehmonxona va kunlik xarajatlari uchun 34.9 (o‘ttiz to‘rt million to‘qqiz yuz ming) mln.so‘m mablag‘ tuman mahalliy budjetining 2024-yil zaxira mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga:

- ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli, to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta‘minlash;

- moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli Iqtisodiyot va moliya hamda G‘aznachilik xizmati bo‘linmalariga taqdim etilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Maxsitaliev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



**IBRAGIMOV
BEXZOD.ODILJONOVICH**